

ARAB XALIFALIGI TOMONIDAN SO‘G‘DNING FATH ETILISHI

Umrzoqova Farangiz Yaxshimurod qizi

Ahmedova Zarnigor Farhodovna

O‘zbekiston-Finlandiya Pedagogika Instituti

Mashhur shoirimiz Erkin Vohidov bir she’rida “Ta’rifing bitmoqqa, xalqim, mingta Firdavsiy kerak”, deganlaridek, Samarqandning shon-u shuhratini, uning qadimiylarini va betakror madaniyatini tarannum etish uchun odam, albatta, yo zo ‘r shoir yoki zo ‘r olim bo ‘lishi kerak. Haqiqatdan ham yer yuzining sayqali bo ‘lmish Samarqand tuprog`ining har bir zarrasida ulug’ bir hikmat bor.¹

Shavkat Mirziyoyev

Kalit so‘zlar: So‘g‘d, Tarxun, sulk, Buxoro, Poykand, G‘urak, qo‘zg‘alon, Divashtich, soliq, turk qo`shini, harbiy hiyla, sotqinlik, shahriston, qozi

Arablarining bиринчи hujumi 654-yil So`g`ddagi Maymurg` qal`asiga arablarining bиринчи hujumi bo`ladi. 676 yili Xuroson voliysi Said ibn Usmon boshlik qo`shin Buxoro vohasiga yurish qildi. Buxoro hukmdori Sug`d, Kesh va Nasafdan yordamga kelgan 120 ming kishilik qo`shin bilan himoyaga kirishdi, lekin sug`dliklar jang qilishni istamay ortga qaytib ketishdi. Buxoro malikasi esa Said ibn Usmon bilan sulh tuzishga majbur bo`ldi. U Buxoro zodagonlaridan 80 kishini Saidga topshirdi va juda katta miqdorda o`lpon to`ladi (300000 dirham). Said ibn Usmon Buxoroni bo`ysundirgach So`g`d viloyati markazi Samarqandga yurish qildi. Samarqandni himoya qilayotgan turk qo`shini bir oyga yaqin xujumni qaytardi. Samarqandliklar raqibni yengib bo`lmasligini anglab Said ibn Usmon bilan sulh tuzishdi. Said Samarkanddan 30 ming asir olib Xurosonga jo`natdi, so`ng Termizga yurish qilib u yerni osonlikcha egalladi. 676-yili Xurosonning yangi noibi Sayid ibn Usmon Buxoro va Samarqandga yurishida Muhammad (a.s.) payg`ambarning jiyani Qusam ibn Abbos ibn Abdul-Mutallib ham ishtirok etadi. Samarqand yaqinidagi janglardan birida halok bo`lib, so`ng keyinchalik Shohi Zinda (tirik shoh) nomini olgan qabristonga qo`yiladi. Said ibn Usmon Movarounnaxr yurishini tugatib, Buxoroga qaytdi, buxoroliklarning 80 nafar garovdagagi yurtdoshlarini Amudaryodan o`tgach qaytarib berishini aytdi. Said Movarounnahr xududida ularni ozod qilsa kutilmaganda xujumga uchrashidan xavfsiragandi. Keyin Marvga borguncha garovdagilarni ozod qilishni paysalga soldi, Marvda esa Nishopurdan qaytarib yuborishga va'da berdi.

¹ Shavkat Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” Toshkent “O‘zbekiston” 2017-yil 176-177-bet

Nishopurga etgach Kufada ozod qilishini aytdi. Lekin u yerda xam ozod qilmadi va ularni Madinaga jo`natdi. Said Madinada ularni qul qilib ishlata boshlaydi. Yazid ibn Muoviya davrida garovga olingan buxoroliklar hech qachon ozod bo`lmasliklariga ishonch hosil qilishdi va Saidga qarshi suiqasd uyuştirishdi. Ular o`zaro til biriktirib Said saroyiga bostirib kirishdi va Saidni tutib o`ldirishdi, shundan so`ng uzlarini halok etishdi. 704 yili Qutayba ibn Abu Muslim Boniliy Xuroson volysi etib tayinlandi. Xajjoj ibn Yusuf 705-yili unga Amudaryodan o`ng tomondagi barcha xududlarni bo`ysundirishbuyrug`ini berdi. Qutayba Balx keyin esa Chag`oniyonni jangsiz egalladi. 707 yili Kutayba Buxoro vohasiga yurish boshladi, uning dastlabki ishi Poykand shahrini qamal qilish bo`ldi. 50 kun davom etgan qamaldan so`ng arablar Poykandni oldi. Poykandga katta o`lpon to`latilib, sulx tuzishga majbur etildi. Qutayba qabiladoshi Varko ibn Nasr Bokiliyni Poykandga amir qilib qoldirdi. Biroq arab qo`shini Poykanddan bor-yug`i 30 chaqirim uzoqlashganda, shahar aholisi isyon ko`tardi. Isyonda Varko ibn Nasr va boshqa arab askarlari o`ldirildi. Qutayba Buxoro shahriga boshlagan yurishini to`xtatib, Poykandga qaytadan yurish boshladi. Bu safar xech kimni ayab o`tirmadi, barcha erkaklarni qirib tashladi, ayollar va bolalarni esa asirga oldi. Poykandni bir yoqli qilgach Vardonze ustiga qo`shin tortdi, biroq ko`tilmaganda Sug`d hukmdori Tarxun, Buxoro xukmdori Xunuk va Shofirkon xukmdori Vardon bilan yordamga kelgan 40 ming kishilik turklarning birlashgan qo`shini uning ro`parasidan chiqdi. Torob va Romitan oralig`idagi jangda Qutayba g`alabaga erisholmasligini anglab ittifoqchilar orasini buzishga kirishdi. Eng katta ta'sirga ega bo`lgan lekin siyosatga tushunmaydigan Sug`d hukmdori Tarxunga² Xayyon Nabatiy nomli kishini jo`natib, unga «Senga yordam berish uchun kelgan turklar, aslida, seni ag`darib, o`zлari Sug`dni olmoqchi, biz bu yerda faqat yilning issiq paytlarida turamiz, turklar biz Marvga qaytib ketganimizdan so`ng, seni taxtdan ag`darishadi» degan gapni etkazishni topshirdi. Sug`d xokimi Tarxun Qutayba bilan kelishib, unga ikki million dirxam to`lashga rozi bo`ldi. Boshqa ittifokchilar Tarxunning qilmishidan xabar topib yurtlariga qaytib ketishdi. Qutayba to`rt oy davom etgan juda qiyin vaziyatdan ana shunday qutuldi. Lekin bu qilingan ish Samarqandga qimmatga tushadi. O`sha yilning o`zida Kesh va Naxshab arab qo`shini tomonidan egallandi. 709 yili Qutayba Iroqdan qo`shimcha kuch olib Buxoroni to`liq zabit etish uchun yurish boshladi. Oldinlari uch marta qarshilik kursatgan Buxoro bu safar jangsiz taslim buldi. 710-yili Qutayba qo`shini Nasaf va Keshni olib, Xorazmdagi isyondan foydalanib uni ham egallab oldi. 712-yili Qutayba boshliq arablar hamda uning qo`shiniga qo`shib olingan Xorazm va Buxoro qo`shinlari Samarqandni olish uchun yurish boshladi. Bu vaqtda Samarqand ixshidi Tarxun

² Tarxun- turkcha “tarxon” degan unvondan kelib chiqqan

taxtdan ag`darilib, uning o`rniga ukasi G`urak (709-738) hukmronlik qilayotgandi. Bu, shubhasiz sug`diylarning arablarga qarshi kurashi tarixida muhim voqeа bo`ldi. Chunki u zamonasining vatanparvar siyosatdon arbobi bo`lib, hukmronlik davrida imkonи boricha, arablarga qarshi g`ayrat bilan kurash olib bordi. Tarxun esa xibsda o`zini – o`zi xibsda halok etadi. Kattaqo`rg`on va Karmana oralig`idagi Arbinjon nomli joyda Qutayba qo`shini va G`urak boshlik sug`dliklar o`rtasida jang bo`ldi. G`urak jangda g`olib kelolmasligini anglab Samarkandga chekindi. Arablar tomonda Buxoro va Xorazm hokimlari qo`shinlarining qatnashishi, sug`diylarning yakkalanib qolishiga, yordam ololmasligiga sabab bo`ldi. Undan tashqari Samarqand zodagonlari ichida birlik ham yo`qoldi. Tarxunning o`limidan so`ng uning tarafдорлари ko`proq arablarga yon bosa boshladi. Panjikent hokimi Divashtich shu guruhga rahbarlik qila boshladi. Qutayba esa “Tarxunning o`limi uchun qasd olaman” deb e`lon qildi. Sug`dliklar Choch podshosi, Farg`ona ixshidi va Turk xoqonidan yordam so`rashdi. Barcha hukmdorlar Sug`dga yordam berishga qaror qildi. Ittifoqchilar qo`shinga lashkarboshi etib Turk xoqoning kichik o`g`li Inal xaqon tayinlanadi. Qutayba darhol ukasi boshchiligida saralangan qo`shin tuzib madad kuchlarining yo`lini to`sib, ularga qo`qqisdan zarba berdi va ularni tor-mor keltirdi. Qutayba yordamchi kuchlarni bir yoqli qilgach Samarqandga yoppasiga hujum boshladi. Shahar 300 manjaniq (tosh otadigan moslama)larda o`qqa tutuldi. Jangda xorazm va buxorolik jangchilar jonbozlik ko`rsatdi. Samarkand bir oy davomida qamal qilindi, shahar mudofachilari qahramona harakat qilishdi. Kamondan o`q uzib, tashqariga chiqib, shiddatli janglar qilib dushmanga katta talofat yetkazdilar. Shunday bo`lsada G`urak taslim bo`lishga majbur bo`ladi. G`urak va Kutayba o`rtasida sulx tuzildi, unga ko`ra G`urak 3000 ta qo`y, 50 ming misqol oltin, 2 million dirham pul va har yili 200 ming dirxam o`lpon to`lash majburiyatini oldi. Shuningdek, butxonalarни buzib tashlash, ichki shaharni bo`shatib, unda minbari bilan masjid bino qilish, shaharda askar saqlamaslik kabi shartlarni bajarishi lozim edi. Buning evaziga G`urak Samarkand, Kesh va Naxshab xokimi etib tayinlandi. Shunday qilib, u arablarga mute noib bo`lib qoladi. Garchi Samarqand bosib olinsada, ammo Sug`dning katta qismi arablarga bo`ysunmaydi. Sug`dliklar esa o`zlarini mag`lub his etmaydilar. Shuning uchun ulardan hayiqqan Qutayba Samarqandda ukasi Abdurahmon ibn Muslim boshliq yaxshi saralangan qo`shin qoldirib o`zi yurishda davom etadi. Qutaybaning keyingi yurushlari Shosh, Farg`ona, Kashg`arni egallashi bilan yakunlanadi. Yangi hukmdorga qarshi chiqqanlikda ayblangan Qutayba ibn Abu Muslim 715-yil avgustda o`ldirildi. Qutayba o`ldirilgach, arablarning sharqqa yurishi to`xtadi. Endi ular egallangan shahar va qishloqlarda tinch hayot qurishga va urushlar tufayli tanazzulga uchragan iqtisodni tiklashga e'tibor qaratishdi.

Umaviy hukmdor Umar ibn Abdulaziz (717 - 720) davrida O'rta Osiyodagi axvol qisqa muddatga barqarorlashdi. U islam diniga o'tgan kishilardan jizya olishni qat'iy taqiqlab qo`ydi. Xuroson voliylari jizya olinmasa, iqtisodiy inqiroz kelib chiqadi deya buyruqni bajarishni xoxlashmasdi. Movarounnaxrda esa ko`pchilik o`zini musulmon hisoblagani uchun jizya to`lashni to`xtatdi. Umar ibn Abdulazizning islohatlaridan ruhlangan Samarqand ahli zodagonlari esa unga elchilar yuborib shaharning shahriston qismini qaytarib berishini so`radilar. Umar II Samarqand arablar tomonidan tayinlangan hokimi Sulaymon ibn Abusariga maktub yozib, qozi bu ishlarni hal qilib berishini so`raydi. Samarqandliklar shikoyati ko`rib chiqilib, bu ish shahar ahlining foydasiga hal qilinadi. Qozi shahardan arab garnizoni olib chiqib ketilishi kerak deb hukm chiqaradi. Bu esa urush kelib chiqishini bildiradi. Ortiqcha qon to`kilishini xoxlamagan Samarqand ahli o`z davolaridan voz kechishiga sabab bo`ladi. Oradan ko`p o`tmay Umar ibn Abdulaziz zaxarlab o`ldirildi, uning o`limidan so`ng chiqargan farmonlari ham kuchdan qoldi. Islom hukmlariga zid ravishda yangi musulmonlardan jizya olish qaytadan yo`lga qo`yildi.

Belozuriy va Narshaxiyning bergen ma'lumotlariga qaraganda arab lashkarboshilari ko'chirib keltirilgan arablarga mahalliy xalqlaming uy-joylarini zo'rlik yo'li bilan tortib olib bergenlar. Jumladan, Qutayba Samarqand va Buxoroni egallagach, shaharlardagi uylaring yarmini arablarga bo'shatib berilishini talab qilgan. Faqat quraysh qabilasining o'zidan Samarqandga besh ming aholi ko'chib kelgan. Buxoro, Samarqand, Marv va boshqa shaharlaming aholisi o'z yashash joylaridan masjid qurish bahonasida ham ko'chirilgan. 720-722-yillarda birinchilar qatorida arablarga qarshi Sug'diyonada qo'zg'olon ko'tarilgan. Bu qo'zg'olonga Samarqand hokimi G'urak va Panjikent hukmdori Divashtich boshchilik qilganlar. Har safar bo'lganidek sug'dliklaming ozodlik va erk uchun kurashlarini turklar qo'llab-quvatlaganlar. Yettisuvdan Tur-kash xoqon shahzoda Kursul boshchiligidida katta qo'shinni yordam berish uchun Samarqandga yuborgan. Sug'dliklaming birlashgan kuchlari arablarga qarshi muvaffaqiyatli janglar qilib, bir necha zarbalar bergenlar. Bu paytda Xurosonda Said ibn Abdulaziz noib edi. U yumshoq tabiatli va ayni zamonda kiyim-kechakka o'ch bo'lganligidan «Xuzayna» (uy bekasi) laqabini olgan edi. Xurosonga yangi tayinlangan Said ibn Amr Al-Haroshiy (721) sug'dliklarga qarshi keskin choralar ko'rgan. U Iroqda ko'tarilgan xalq qo'zg'olonini bostirishda o'zining shafqatsizligi bilan nom qozongan edi. Haroshiy ko'rgan keskin choralardan jabr ko'rib norozi bo'lgan Sug'd aholisi mamlakatni tark etib, Farg'onaga ko'chishga qaror qilgan. Sug'd aholisidan taxminan 10 ming kishi yo'lga otlanib, Xo'jand shahriga yetib kelganlarida Farg'ona podshosi ularni shaharda joylashtira olmay Isfara hududlarida joylashishini taklif etgan. Bu birinchi guruh edi. Ikkinci guruh Panjikent hokimi Divashtich boshchiligidida Zarafshon bo'ylab tog'lar oshib Obgar (Obargar)

qal'asi oldidan o'tib ilgarilab borgan. Birinchi guruh hali Isfaraga yetib bormasdan Al-Haroshiy yuborgan arab qo'shinlari Xo'jandga yetib borganlar va sug'diyalmi qamal qilganlar. Farg'ona hokimi sug'diylargacha yordam bernagan. Qamalda qolgan sug'diyalmi arablar batamom qirib tashlaganlar. Ba'zi ma'lumotlarda uch ming, yana boshqalarida esa yetti ming odam ana shu qirg'inda halok bo'lganligi ta'kidlanadi. Arablar juda katta o'ljalarni qo'lga olganlar. Said Al-Haroshiy Divashtich boshchiligidagi Obargar yaqinida turgan panjikentliklami tugatishga kirishadi. Shu maqsadda u Sulaymon ibn Abussari boshchiligidagi katta qo'shin jo'natadi. Bu qo'shin tarkibida O'rta Osiyo hududlaridagi bir necha hokimlar, jumladan, Xorazm vohasi kuchlari ham bor edi. Umumiy qo'shinga rahbarlik qilish Musayyob ibn Bashir Ar-Riyohiyga yuklatiladi. Qo'zg'olon ko'targan Divashtich boshchiligidagi kuchlar Obargar qal'asidan chiqib dushmani qarshi oladi. Bu jangda arablarning qo'li baland kelib, qo'zg'olonchilar Obargar qal'asiga chekinadilar. Qal'a arablar tomonidan qurshovga olinadi. Kuchlar nisbatining teng emasligini hisobga olgan Divashtich Sulaymonga qal'ani topshirishga rozi bo'ladi va o'zini Musayyob bilan birga Haroshiy oldiga yuborishni so'raydi. Haroshiy Divashtichni izzat-ikrom bilan kutib oladi, samimiyligi qabul qiladi, so'ngra Arbinjonga (ba'zi manbalarda Rabinjon - Kattaqo'rg'onga yaqin joyda) olib borib qatl etadi. Divashtich tanasi zardushtiylama xilxonasi - novus devoriga qoqib qo'yiladi. Haroshiy sug'diyalar qo'zg'olonini bostirgach, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarida «tartib» o'rnatadi. 725-729-yillar davomida arab xalifaligining soliq siyosatiga qarshi Samarcand, Buxoro va Xuttaliyonda qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Bu davrda Ashros ibn Abdulla As-Sulomiy noib bo'lib, u ikki tomonlama siyosat olib borib, mahalliy aholining g'azabiga duchor bo'lgandi. U dastlab musulmon dinini qabul qilgan fuqarolardan hech qanday soliq olinmaydi, deb Xuroson va Movarounnahr aholisining ishonchiga sazovor bo'lgan edi. Ashros arablar kuchi islomda, islomni qabul qilgan mahalliy xalq aralarga hech qanday qarshilik qilmaydi, deb o'ylagandi. So'gdiylar uning va'dasiga ishonib tezda islom diniga kirgan va musulmon bo'lgandilar.

Masalani qiziq tomoni shundaki, ilgari xalq tomonida turib arablarga qarshi kurashgan Samarcand hokimi G'urak endi Ashros siyosatiga qarshi chiqadi. Taboriy ma'lumotlariga qaraganda u Ashrosga xat yozadi. Bu xatda musulmonlikka o'tganlarga nisbatan tutilgan siyosat xirojning yo'qolib ketishiga sabab bo'ldi, xiroj oladigan odam qolmadi, deb uni ogohlantirgan emish. Shundan so'ng Ashros G'urakning haq ekanligiga g'oyatda ishonch hosil qilibdi va ilgarigi «kuchi islomda», degan fikr o'rniga, «arablar hukmronligining kuchi xirojda», degan shiorni ilgari suribdi. Ana shu asnoda Ashros islomni qabul qilgan va qilmaganlardan ham bir xilda, avvalgidek soliq yig'averishni buyuribdi. Bu tezda sug'd aholisining keskin noroziligidagi sabab bo'lib, katta qo'zg'olonlarning boshlanishiga olib kelgan.

Samarqandda boshlangan bu qo'zg'olonda yetti ming kishi qatnashgan. Qo'zg'olon kengayib Buxoroga tarqalgan. Samarqand va Buxorodagi qo'zg'olon qatnashchilari o'zlarining musulmonlikdan chiqib eski dinlariga qaytganliklarini ochiq-oydin e'lon qilganlar. Turklar qo'zg'olonchilarini qo'llab-quvvatlab, ularga yordam berganlar. Qo'zg'olon hamma yerni qamrab olgan. Ayniqsa, 728-yil arablar uchun juda og'ir bo'lganligi qayd etiladi. Qo'zg'olonchilar ularni juda ko'plab hududlardan haydab chiqarganlar. Faqat G'urakning ikkiyuzlamalik va sotqinlik siyosati tufayli Dobussiya va Samarqand arablar qo'lida qolgan. G'urak bu ozodlik kurashida katta rol o'yynashi mumkin edi. Ammo u bu yo'lni tanlamadi. Faqat 729-yilda juda katta urinishlardan so'ng arablar yana Buxoroni qaytarib olishga muvaffaq bo'ldilar. Turklarning qo'zg'olonchilarga ko'rsatgan yordamidan ta'sirlangan G'urak kechikib bo'lsada, arablar bilan aloqani uzdi va sug'dliklar qo'zg'oloniga qo'shildi. Bu uning ilgarigi obro'sining tiklanishiga sabab bo'ldi. Taboriy, ayniqsa, Kesh atrofida arablarga qarshi Shosh, Farg'ona qo'shinlari va turk lashkarlarining qahramonlarcha jang qilganligini alohida ko'rsatadi. Bu olib borilgan janglar Samarqand, Buxoro va boshqa joylarni istisno qilganda Movarounnahr xalqining yana besh yil mobaynida arablar hukmronligiga bo'ysunmagan jasoratidan bir namunadir. 736-737-yillarda Tohariston va Sug'dda arablarga qarshi yana qo'zg'olon ko'tarildi. Natijada arablar juda og'ir ahvolga tushib qoladilar. Xususan Nasr ibn Sayyor (738-748) davrida ko'rilgan tadbirlar tufayli arab istilochilari o'lkada o'z mavqelarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. U qo'zg'olonchilami bostirshi uchun Samarqand, Shosh, Farob va Farg'onaga bir necha bor qo'shinlar tortib bordi. Nasr ibn Sayyorning noiblik davri O'rta Osiyo yerlarining arablar tomonidan istilo qilinishi tarixida yangi va so'nggi davrdir.

Movarounnaxda shu jumladan So`g`dga isyonlar va qo`zg`olonlar Umaviylar davlati qulaguncha tinmadi. 747 - 750 yillarda bulib utgan Abu Muslim Xurosoniy boshchiligidagi qo`zg`olonda Movarounnahrlik askarlar ham faol qatnashdi.

Shunday qilib sahroyi arablar dunyoning eng qadimiy va madaniyat o'lkalaridan biri bo'lmish Movarounnahmi o'z mustamlakalariga aylantiradilar. Movarounnahr hududida yashagan ajdodlarimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda sahroyi arablarga qaraganda anchagina oldinda edilar. Nima sababdan ularni arab istilochilari nisbatan tez va oson bosib ololdilar? Buning sabablari birinchidan, o'lka xalqlari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy birlikning bo'limganligi va tarqoqlikning mavjudligidir. Arablar Movarounnahr yerlariga bostirib kelgan paytda o'lkada bir- biriga dushman bo'lgan 15 dan ortiq kichik-kichik feodal davlatchalar bor edi. Bu holdan arabar ustalik bilan foydalandilar. Ikkinchidan, arablar ko'chmanchi turk qabilalari bilan mahalliy o'troq xalqlar o'rtasida mavjud bo'lgan qarama-qarshiliklardan ham foydalandilar. Uchinchidan, arablar Movarounnahrga qadar juda

ko'plab boshqa mamlakatlar va aholi hududlarini bosib olgan edilar. Ular bu mamlakatlarning aholi kuchlari, moddiy boylik irnkoniyatlaridan ona tuprog'imiz hududlarini bosib olish chog'ida foydalandilar. To'rtinchidan, arablar Mavarounnahr hududlariga bostirib kelganlarida bu yerda ko'p dinlilik hukm surardi. Bu hol arablarga qarshi o'l kamiz hududi xalqlarining birlashuviga to'sqinlik qildi va arab bosqinchilarining g'alabasini yengillashtirdi.

Qutaybaning Samarcandni egallashida sodir bo`lgan bir qancha voqealarni e'tiboringizga havola etamiz.

Qutayba Samarcandni egallaganidan keyin shahar ma'murlaridan biri sarkarda bu shaharga shar'iy talablarga zid tarzda kirganini da'vo qilib, qoziga arz qiladi. Qutaybani ham da'vogarning yonida turg'izib qo'yadilar. Islomiy harb ahkomlariga ko'ra Qutayba shahar ahliga yo islomni qabul qilish, yo jizya (g'ayridinlardan undiriladigan soliq) to'lash, yo urushni taklif qilishi lozim edi. Qutayba esa shahar ahlini ogohlantirmasdan, qo'qqisdan hujum qilgan va g'alaba qozongan edi. Qozi da'vogarning arzini puxta o'rganib chiqib, Qutayba ibn Muslim shaharni chindan ham makr-hiyla bilan egallagan deya hukm chiqaradi va sarkardaning bu harakatini qattiq qoralaydi. Qozining hukmiga ko'ra Qutayba boshliq musulmonlar shaharni tark etadilar. Taomilga binoan shahar ahliga yuqoridagi shartlar taklif etiladi. G'olib sarkardaning mag'lub yurt vakili oldida mahkamada yengilishi tarixda kuzatilmagan edi. Shu hodisaning o'zidan islomning naqadar haq va adolatli din ekani haqida xulosa chiqargan shahar ahli yoppasiga islomni qabul qilgan ekan.

Qutayba ibn Muslimning yurtimizda islom dini yoyilishiga qo'shgan xizmati uning har qanday xatolarini yuvib ketadi» deguvchilar ham topilar. Avvalo islomning ona vatanimiz hududida yoyilishiga sabab faqat Qutaybaning qilichi emas, dinimizning haqligi va buyukligi, xalqimizning azaliy fikratiga uyg'unligi bo'lsa ajab emas. Qolaversa, islom vatanimizga Qutaybadan ancha avvalroq kirib kelgandi. Bobur Mirzo birgina Samarcand ahlining hazrati Usmon (r.a.)³ zamonlaridayoq musulmon bo'lishganini yozgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent., "O'zbekiston" 2017.
2. Rustam Shamsiddinov, Shodi Karimov "Vatan tarixi" Toshkent., "Sharq" 2019.
3. Narshaxiy, Buxoro tarixi, T., 1966;
4. Beruniy, Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, t. 1, T., 1968; Istorija at-Tabari, T., 1987.
5. O'zbekiston tarixi Toshkent "Yangi asr avlodii" 2003

³ Usmon (r.a.) – (634-644) yillar oralig'ida xalifalik qilgan. Uning hukmronligi davrida Quroni Karim yagona kitob holiga keltiriladi.